

## **O'ZBEK ZARDO'ZLIK SAN'ATINING RIVOJLANISH TARIXI (BUXORO VOHASI MISOLIDA)**

*Andijon viloyati Paxtaobod tumani*

*5-sonli umumta'lim maktabi*

*Tarix fani o'qituvchisi*

*G'iyoSOVA Zarina Yusuf qizi*

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada yurtimizda qadimdan shakllanib kelgan hunarmandchilik turlaridan biri bo'lgan zardo'zlik san'ati haqida Buxoro vohasi misolida keng ma'lumot berilgan. Buxoro vohasi aholisini qadimdan ushbu hunarmandchilik turi bilan shugullanib, bu hunarni saroy san'ati darajasiga olib chiqdilar. Saroy ahli va hukmdorgina zardo'zi kiyimlar kiyib yurishganligi haqida keng ma'lumotlar berilgan. Kalit so'zlar : kashta, zardo'z, zardo'zi ash'yolar, to'n, kamzul, chakmon, chalvor, poyafzal, belbog', mahsi, texnika.

O'zbek xalq amaliy bezak san'ati turlaridan biri zardo'zlik san'atidir. Zardo'zlik- zar ip bilan kashta tikish kasbi bo'lib, bu ish bilan shug'ullanuvchilar "Zardo'z" deb yuritiladi. Zardo'zlik fors tilidan olingan bo'lib, zar- tilla va do'zi-tikmoq ma'nosini anglatadi. Mazmuni jihatidan xalqchil bo'lgan va qimmatbaho matodan tayyorlanadigan zardo'zi kiyimlar mahalliy aholining turli tabaqalari o'rtasida keng tarqalgan ip bilan kashta tikishga qaraganda nozik didni talab qilgan. Bu kiyim-kechaklar asosan amir saroyidagilarning ehtiyoji uchun tikilgan, ba'zangina shahardagi boy a'yonlar uchun tayyorlaganlar[1].

Ota-bobosidan meros bo'lgan kashtachilik kasbi bilan shug'ullangan yuzlab qo'li gul ustalar Buxoro amirining hashamatli saroyidagi qimmatbaho zardo'zi kiyimlarni tayyorlash bilan band edilar. Buxoro zardo'zi ash'yolarining deyarli hammasi amir saroyining ehtiyoji uchun ishlatilardi, faqat juda oz miqdorigina sotish uchun bozorga chiqarilardi.

Erkaklarning zar bilan tikilgan to'n, kamzul, chakmon, chalvor, poyafzal, Belbog', salla, kuloh va jul faqat xonga va uning buyurtmasi yoki yaqinlari tomonidan biron ta olibiylantirishga yoki bayram munosabati bilan tayyorlash buyuriladi. Hech kim, hatto eng katta amaldorlardan bironasi ham yuqorida aytib o'tilgan kiyimlardan hech birini o'ziga buyurtirishga haqqi yo'q edi, ular zarbof kiyimlarni amir sovg'a qilgandagina kiyishlari mumkin edi. Ayollar va bolalarning zardo'zi kiyimlari faqat badavlat xonadonlarning a'zolarigagina kiyish rasm bo'lgan. Bu kiyimlarni ular biron ta olibiylantirishga yoki bayram munosabati bilan kiyishgan. Boy xonadonlarning 8—10 yoshdan katta bo'lмаган о'г'il bolalariga sunnat to'yi munosabati bilan zarbof to'n kiydirishgan[2].

XIX va XX asr boshlarida, ya’ni 1785- yildan to 1920 yilgacha Buxoroda hukmronlik qilgan mang’itlarning oxirgi sulolasiga taalluqli bo‘lgan zardo‘zi kiyimlari hozirgi kunda bizgacha yetib kelgan yagona yodgorlik nusxalardir. Mang’itlarning birinchi sulolasi vakillariga mansub bo‘lgan zardo‘zi ash’olar bizgacha deyarli yetib kelmagan. Ammo Gaydar (1800— 1826 y) zamonidan yagona yodgorlik sifatida zardo‘zi mahsi saqlanib qolgan. Mahsiga 1224-yil raqami tiqilgan, bu milodning 1809—1810- yillariga to‘g’ri keladi. Mazkur raqamning uchrashi shu paytgacha zardo‘zi kiyimlarda ruy bergen yagona holdir. Amir Nasrullodan (1827—1860- y) anchagina zardo‘zi kiyimlar saqlanib qolgan. Buyumlarning ko‘pchiligi 1895-yildan 1911- yilgacha hukmronlik qilgan Abdulahadga mansubdir, zero. buxorolik kashtachilarining zardo‘zlik san’ati shu davrda gullab yashnagan deb hisoblanadi. Buxoroda zardo‘zlik 1920- yil amir taxtdan ag‘darilguncha rasmiy jihatdan saroy san’ati hisoblanardi. Bu shaharda tayyorlanadigan zardo‘zi buyumlarning deyarli hammasini egallab olgan katta buyurtmachini yo‘qotgach, tabiiyki, zardo‘zlik korxonalari keskin kamayib ketdi. Zardo‘zlar hunarmandchilik ustaxonalariga birlashib, mayda buyumlar, do‘ppilar va ayollarning ayrim kiyim-kechaklarini tayyorlashga kirishdilar. Zardo‘z ustalar va ularning shogirdlari san’atlaridan ajoyib namunalar yaratdilar, unga yangicha mazmun, yangicha sayqal, yangicha kompozitsiya berdilar[3]. Zardo‘zlik ustaxonalariga jon deb a’zo bo‘lib, tajribali usta kashtachilar ko‘magida zardo‘zlik san’atini tezda o‘rganib oldilar. Kashtachilik san’atining tajribali ustasi, iste’dodli gulkor usta Omonjon Majidov va qo‘li gul kashtachi usta Fayzullo G‘aybullaevlar artelga kelgan yoshlari, ayniqsa, ayollardan mohir kashtado‘zlar yetishib chiqishida o‘zlarining salmoqli hissalarini qo‘shdilar. Ma’lumki, zardo‘zlik san’ati va uning mahsuloti bo‘lgan zardo‘zi; buyumlarga ehtiyoj xususiy mulk paydo bo‘lishi bilan vujudga kela boshlagan. Xususiy mulkchilikning paydo bo‘lishi, ya’ni ko‘p mol-mulkning kamchilik qo‘lida to‘planishi kamchilikning ko‘pchilik ustidan hukmronligining o‘matilishiga olib kelgan. Bu hukmronlikni namoyon etish, uni boshqalarga tan oldirish va mustahkamlash avval-boshdan qimmatbaho kiyim-kechaklar vositasida amalga oshirilgan. Xususiy mulk egalari o‘zlarining boyliklarini chiroylar va qimmatbaho ust-bosh bilan namoyon etganlar, boshqalarga ko‘z- ko‘z qilganlar. Keyinchalik esa uy-joy, ya’ni saroylar, qasrlar qurish bilan, keyinroq esa eng rivojlangan qurol-yarog‘lar, texnika yangiliklariga ega bo‘lish bilan namoyon etganlar. Ko‘rinib turibdiki, insoniyat xususiy mulkchilik davriga qadam qo‘yishi bilan zardo‘zlik san’ati ham paydo bo‘la boshlagan. Bu san’at tomonidan yaratilgan mahsulotlar- zardo‘zi kiyimlar va buyumlar qimmatbaho materiallardan tikilganligi hamda qimmatbaho bezaklar bilan bezatilganligi tufayli boshqa buyumlardan ajralib turgan[4].

Zardo‘zlik san’ati insoniyat tarixining ilk davrlaridanoq xususiy mulkchilik paydo bo‘la boshlagan davrlardan boshlab shakllangan ekan, uning to hozirgi

davrgacha bo‘lgan tarixi to‘g‘risidagi bilim va ma’lumotlar necha-necha jild kitoblarga jo bo‘ladi. Mana shu tarixni o‘zida jamlagan bilimlarni zardo‘zlik texnologiyasi bo‘yicha o‘quv qo‘llanmasining bir qismiga joylashtirish va uni o‘quvchiga lo‘nda, tushunarli tarzda yetkazish uchun uni bosqichlarga bo‘lib chiqish zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Agzamova G.A. So’nggi o’rta asrlar O’rta Osiyo shaharlarida hunarmandchilik va savdo. – T.: O’zbekiston,2000. -B.17.
2. Almardonova B., Muhiddinov M. O’zbekiston zargarlik san’ati// Moziydan sado. - 2009. -№4. -B.46-48.
3. . Almeeva D.E. Buxoro zargarlik san’ati // Buxoro madaniy me’rosi tarixidan. – Buxoro. -1995.-№ 3. -B.75-76.
4. Ashirov A. O’zbek xalqining qadimiylari e’tiqod va marosimlari, -T.: “A.Navoiy”, 2007. -B.180.
5. Goncharova P.A. Buxoro zardo‘zlik san’ati. -T.: Toshkent,1986.